

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON  
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI  
BOLALARNI KOMPYUTER SAVODXONLIGIGA  
O‘RGATISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI  
VA METODOLOGIYASI**

**TOHIKEHT – 2013**

**UDK: 373.2:004**

**KBK 22.14**

**Kichik maktab yoshidagi bolalarni kompyuter savodxonligiga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari va metodologiyasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2013, 92 bet.**

**ISBN 978–9943–10–861–5**

Mazkur monografiyada kichik maktab yoshidagi bolalarni kompyuter savodxonligiga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari va metodologiyasi to'g'risida fikr bildirilib, unda umumiy o'rta ta'lim maktablarida, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini yaxshilash, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda tashkil etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotning o'ziga xos jihatlari haqida ilk tasavvurlarni va axborot madaniyatini shakllantirish hamda qisman kompyuterdan foydalangan holda axborot bilan ishlashning usullarini tarkib toptirish ko'zda tutilgan.

Monografiya pedagog xodimlar, ilmiy izlanuvchilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, umuman, ta'lim sohasi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

**Mualliflar: R.Ahmidinov, M.Divanova, M.Inoyatova,  
D.Abdumuzimova, G.Umarova, E.Himmatov**

**Mas'ul muharrir: R.X.Djurayev – pedagogika fanlari doktori,  
professor**

**Taqrizchilar: Sh.Q.Mardonov – pedagogika fanlari doktori;  
M.N.Soy – pedagogika fanlari nomzodi.**

*Ushbu monografiya T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti ilmiy Kengashi qarori (27.12.11. № 16) ga muvofiq nashr etildi.*

**ISBN 978–9943–10–861–5**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

---

---

## KIRISH

*“Bugungi xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg‘or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”*

***I.A.Karimov***

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishi hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining turli jabhalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi barcha yutuqlarni tatbiq qilish darajasini oshirdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatimizning barcha yo‘nalishlariga, jumladan, ta‘lim sohasiga jadal sur‘atlar bilan kirib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quv-uslubiy ta‘minotini rivojlantirish, fanlarni o‘zlash-tirish samaradorligini ortishiga olib keladi. Shu munosabat bilan uzluksiz ta‘lim tizimida o‘qitiladigan barcha fanlarga doir tushunchalarni o‘quvchilarda shakllantirish bilan birga, o‘z ustida mustaqil ishlash, axborotlarni yig‘a olish, tahlil qila bilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish natijasida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy bozor munosabatlari tizimi o‘z-o‘zidan nisbatan keng qamrovli axborot bosqichiga o‘tishni talab etmoqda, madaniyatlararo ta‘sir doirasining kengayishi, telekommunikatsiya lokal tizimining keng joriy etilishi natijasida dunyoning barcha burchaklaridan axborot olish imkoniyatiga ega bo‘linishi hozirda maktab o‘quvchisidan nafaqat fan asoslari bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lishni, balki katta hajmdagi(global) axborot maydonida erkin fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda pedagogika sohasidagi izlanuvchilarning amaliy ishlari o‘quv jarayonini kompyuterlashtirishning ilmiy asoslari va metodologik bazasini yaratish imkonini beradi. Lekin bajarilgan ilmiy-amaliy ishlanmalarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ta‘lim berishning vositasi sifatida kompyuterdan foydalanish qisman

o'rganilgan, xolos. Hozirga qadar kichik maktab yoshidagi bolalarni kompyuter savodxonligiga o'rgatish, ularda kompyuterni qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yetarlicha tadqiq etilgan emas. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'qitishni kompyuterlashtirishga ehtiyoj nihoyatda katta. Pedagogika fani va amaliyotining ushbu yo'nalishda maxsus tadqiqotlarga nisbatan ehtiyoji ilmiy va metodik asoslanmay turib, nodavlat ta'lim muassasalarida maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni kompyuterga o'rgatishga nisbatan amaliy intilishlarning kuchayganligi bilan izohlanadi.

Ta'kidlash joizki, hozirga qadar boshlang'ich ta'limni axborotlash-tirish sohasida xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlar va amaliy ishlan-malar "Kichik maktab yoshidagi bolalarda kompyuterdan foydalanish malakalarini shakllantirish zarurmi?", "Informatikani alohida o'quv predmeti sifatida o'qitish lozimmi yoki kompyuterga o'rgatish bo'yicha kirish kurslari tashkil qilish kerakmi?" kabi savollarga bir to'xtamga olib keluvchi javoblarni topish imkonini bermadi. Bu ham tadqiqotda hal etilish zarur bo'lgan masalalardan biridir.

Tadqiq etilayotgan muammoning nazariy va uslubiy asoslari, uning psixologik jihatlarini bo'yicha taniqli olimlar:

-J.Ikromov, N.R.G'aybullayev, T.R.To'laganov, A.A.Abduqo-dirov, Yu.Mahmudov, S.Alixonov, U.Yu.Yuldashev, M.Tojiyev va boshqalar matematika va informatika o'qitish usullarini takomillash-tirishni;

-L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn va boshqalar shaxsni rivojlantirishning psixologik asoslarini;

-P.Ya.Galperin, N.F.Talizina va boshqalar aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini;

-V.S.Lednev, K.K.Platonov va boshqalar shaxs faolligini oshirish mohiyati to'g'risidagi nazariyani;

-Yu.K.Babanskiy, I.Ya.Lerner, M.N.Maxmutov, D.V.Vilkeyev, P.N.Pidkasiy, T.I.Shamova ta'lim oluvchilarning mustaqil o'qib, o'rganishlarini tashkil qilishning didaktik va uslubiy asoslarini;

-U.N.Nishonaliyev, N.Saidahmedov va M.Ochilovlar dars sama-radorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalarini tadqiq etganlar.

Axborot texnologiyalarining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyatini o'rgangan qator xorijiy tadqiqotchilar (G.A.Bordovskiy, B.S.Gershunskiy, E.V.Danilchuk, V.A.Izvozchikov, S.D.Karakozov, V.V.Laptev, Yu.L.Pigichka, M.N.Potemkin, N.V.Xodyakova v.b.) ning

fikricha, jamiyat rivojlanishining yangi axborot bosqichiga o'tish jarayonida yosh avlodda texnik vositalardan oqilona foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish bilan birga, ularda axborotni qabul qila olish, qayta ishlash va foydalanish ko'nikma, malakalarini, "Axborot muhitida o'zini tuta bilish madaniyatiga ega bo'lish" (S.D.Karakozov), axborotlarni qabul qilishga tayyorgarlik darajasida olamni o'z axborotlari asosida idrok etish, tez o'zgarib borayotgan axborot muhitida mavjud narsa va hodisalarga nisbatan mustaqil munosabatga ega bo'lish xususiyatini shakllantirish (E.V.Danilchuk) zarur.

Har bir fan uchun ishlab chiqilgan dastur asosida uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda axborot texnologiyalarini qo'llash pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir.

Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini o'qitish jarayonida kompyuterdan ko'rgazmali vosita, o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishga mo'ljallangan didaktik o'quv material, o'z-o'zini nazorat qilish va ixtirochilik qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ijodiy texnologik ob'yekt sifatida foydalanishga asosiy e'tibor qaratilishi zarur. Chunki, o'quv materiallarining tabiiy, jonli va eng muhimi, qiziqarli namoyish etilishi, o'quvchilar tomonidan qayta ishlanishi, muammoning ijodiy hal etilishi ularning bilim olishini yengillashtiradi, o'zlashtirilgan bilimlarni uzoq muddat xotirada saqlab qolish, ijodiy ixtirochilik ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, bilimlarni amaliyotda qo'llashlariga sharoit yaratadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va individual, integrativ hamda tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishda kompyuter texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir.

Bugun biz bir narsani aniq tasavvur qilishimiz kerak: mavjud holat, axborotlar oqimining tizimlashuvi inson xotirasiga ortiqcha yuk bo'lib, shaxsning shakllanish jarayonlarida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmaydimi? Inson ongiga yetib borayotgan axborotlar oqimi shaxsning mavjud madaniy-ma'rifiy muhitdagi moslashuvi jarayonida qay tarzda aks etishini bilish va shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarni ishlab chiqishni talab etadi. Ta'lim jarayonida kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi o'quvchilarning ular bilan bemalol ishlay olishlariga pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan biri hisoblangan subyektivizmni cheklashga imkon yaratadi. O'quvchining javobi yoki bevosita o'zlashtirishini baholash o'qituvchining o'quvchi shaxsiga

munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar va o'quvchilar bilimni nazorat qilish hamda baholash obyektiv xarakterga ega bo'ladi.

Axborot savodxonligi bo'yicha mustaqil bilim olish yangi innovatsion ta'lim turining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bunda axborot texnologiyalari integrativ tizimga soluvchi texnologiyalar sifatida alohida o'rin tutmoqda.

Maktab oldida turgan asosiy vazifalardan biri ta'lim sifatini yaxshilash, uning hayot bilan aloqasini mustahkamlashdan iborat. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilar kompyuterga kuchli qiziqish bilan qaraydilar va u bilan tanishishga katta ishtiyoq bildiradilar. Kompyuter bilan muloqot bilimlarni egallashga ehtiyojni orttiradi. Shunga ko'ra, o'qitishning shakl va metodlari haqidagi masala dolzarb hisoblanadi.

1. O'quvchilarda o'qishga qiziqish va motivatsiyani orttirish.
2. O'quv malakalarini shakllantirish.
3. Ta'limda individual va tabaqalashgan yondashuvni amalga oshirish.
4. Kompyuter bilan ishlashga oid dastlabki malakalarni tarkib toptirish.

2007-2008 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika o'qitishni erta boshlash tendensiyasi kuzatildi. Bu masala mutaxassislar oldiga qator muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Ulardan biri mazkur kursda kim dars berishi – informatika o'qituvchisimi yoki boshlang'ich sinf o'qituvchisimi ekanligi bo'ldi.

Boshlang'ich maktabda informatikani o'qitishdan maqsad axborotning o'ziga xos jihatlari haqida ilk tasavvurlarni shakllantirish, qisman kompyuterdan foydalangan holda axborot bilan ishlashning usullarini tarkib toptirish, bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishdan iborat. Tadqiqotda boshlang'ich maktabda informatikani o'qitish maqsadiga muvofiq holda quyidagi qator vazifalar belgilandi-ki, ushbu vazifalarni boshlang'ich sinf informatika o'qituvchilarini tayyorlashda nazarda tutish zarur:

- o'quvchilarni axborotning asosiy xususiyatlari, axborotni tashkil etish va harakatni rejalashtirishga o'rgatish;
- kompyuter va zamonaviy-kommunikatsion texnologiyalar haqida dastlabki tasavvurlarni tarkib toptirish;
- axborot xavfsizligi va zamonaviy axborot jamiyati haqida tushunchalarni shakllantirish.

Ushbu vazifalar boshlang'ich maktab informatika kursini o'qitish jarayonida amalga oshirilib, keyinchalik o'rta maktab informatika kursida ularning tarmog'i kengayib va mukammallashib boradi. Informatikani o'qitish maktabning moddiy-texnik bazasi va o'qituvchining imkoniyatlariga bog'liq ravishda uch turda amalga oshirilishi mumkin.

1-tur. Umumta'lim o'quv fanlari bilan integrallashgan holda bir dars doirasida informatikani kompyutersiz o'rganish.

2-tur. Guruhlarga bo'linmagan holda bir dars doirasida informatika o'quv fanini kompyuterlar orqali qo'llab-quvvatlash.

3-tur. Guruhlarga bo'lingan holda maktab informatika xonasida bir dars doirasida Informatika darsini o'qitish.

Hozirgi kunda respublikamiz maktablari uchun 1- va 2- turlarini qo'llash mumkin. Bu ikkita turni qo'llashimizga sabab barcha maktablarning kompyuter sinflari bilan ta'minlanmaganligi, boshlang'ich maktab o'qituvchilarining yetarli tayyorgarlikka ega emasligidir. 3-turni bizning maktablarimizda qo'llash mumkin emas, chunki aksariyat maktablarda faqat bitta kompyuter sinfi mavjud. Umuman olganda, informatikani ona tili, o'qish, matematika kurslari bilan parallel o'qitish mazkur kurslarda o'qitiladigan an'anaviy mavzularni sifat jihatdan yaxshi o'zlashtirilishiga, shuningdek, "Axborot" nuqtayi nazarini shakllantirish va kommunikativ fikriy nazoratni rivojlantirish imkonini beradi. Shunga ko'ra mazkur asosiy kurslarni Informatika bilan bog'liq imkoniyatlariga e'tiborni qaratish lozim.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinflar uchun informatika ta'limi o'qituvchisini tayyorlashning zarurligini hisobga olib, respublikadagi pedagogika oliygohlarining Pedagogika fakul'tetida "Boshlang'ich maktabda informatikani o'qitish" mutaxassisligini ishlab chiqish zarur. Ushbu mutaxassislik doirasida boshlang'ich ta'limda informatsion texnologiyalarni qo'llash layoqatiga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash amalga oshiriladi. Ushbu mutaxassislik quyidagi o'quv fanlarini qamrab oladi: "Informatikaning nazariy asoslari", "Elektron hisoblash mashinalarini dasturli ta'minlash", "Axborot va kommunikatsion texnologiyalar", "Boshlang'ich sinflarda informatikani o'qitish metodikasi". Mazkur o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida talabalarda informatikadan tushunchalar tizimi, kompyuter savodxonligi asoslari, axborotlarni qayta ishlash usullari haqidagi bilimlar shakllanadi.

---

---

# **I BO‘LIM. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI KOMPYUTER SAVODXONLIGIGA O‘RGATISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI**

## **1.1. Boshlang‘ich sinflarda informatika kursini joriy etishning asosiy yo‘nalishlari**

O‘quv jarayoniga elektron vositalarni tatbiq etish, kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish ishlari respublikamizning umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida sezilarli darajada ommalashib bormoqda. Chunki o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning tatbiq etilishi o‘quvchilarning faol bilim olishini ta‘minlaydi, ularning individual va intellektual salohiyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va har bir o‘quvchi kompyuter bilan ishlashni uddalay olishi va o‘quv predmetlarini kompyuter yordamida o‘zlashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lishi zarur.

Boshlang‘ich ta‘limda kompyuterni qo‘llashdan maqsad axborotning o‘ziga xos jihatlari haqida ilk tasavvurlarni shakllantirish, qisman kompyuterdan foydalangan holda axborot bilan ishlashning usullarini tarkib toptirish, bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faolligini oshirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metod va shakllari haqidagi masala tobora dolzarblashib bormoqda. Yangi axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish ta‘lim mazmuniga, shuningdek, boshlang‘ich ta‘lim mazmuniga ham yangilik olib kiradi. Kompyuterda o‘yinlar o‘ynar ekan, o‘quvchi mashina bilan muloqotning birmuncha oddiy shakllarini o‘zlashtiradi. Agar kompyuter o‘yini o‘quv jarayoniga samarali tatbiq etilsa, u holda kompyuter savodxonligi ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, o‘qituvchining vazifasi esa o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun sharoit yaratish va uni faol boshqarishdan iboratdir.

An‘anaviy darslarda o‘qituvchi o‘quvchilarga turli o‘yinlarni taklif qilgani holda, barcha o‘quvchilarni o‘yinga jalb etish, ularning faoliyatlarini nazorat qilish, individual va tabaqalashgan yondashuvni



amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday darslarga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi ko'rgazmali materiallarni tayyorlash va yig'ishda ham qiynaladi. Kompyuter didaktik o'yin va topshiriqlari hamda slaydlar namoyishidan foydalanish o'qituvchiga qiyinchiliklarni yengishida yordam beradi.

Dinamik o'quv o'yinlarini o'tkazishda tafakkur yuritish tarzi sustroq o'quvchilarga algoritm yoki namuna asosida kompyuterda o'xshash mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiqdir. O'z fikriy imkoniyatlari darajasida ishlash o'quvchining o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, unda o'z-o'zini baholashning ortishiga sabab bo'ladi. Barcha uchun berilgan topshiriqlarni tez va sifatli bajaradigan o'quvchilarga kompyuterda bajariladigan murakkab o'quv topshiriqlari yoki yangi mavzu bo'yicha yo'naltiruvchi vazifalar berish mumkin. Bularni bajarish asosida o'quvchi yangi mavzuni sinfdoshlariga tushuntirishda ishtirok eta oladi.

Boshlang'ich maktabda kompyuterni qo'llash sohalari sifatida quyidagilarni tavsiya etishimiz mumkin.

#### 1. Quvnoq Alifbo.

O'quvchilarda o'quv-yozuv moslamalarini o'stirishga qaratilgan mashg'ulotlarda kompyuter dasturlariga kirish va chiqishni o'rganadilar. Asosiy geometrik shakllar va asosiy rang turlari bo'yicha bilimlarini rivojlantiradilar. Makonda mo'ljal olish layoqatlarini, o'n ichida son va miqdor haqida bilimlarini mustahkamlaydilar, mantiqiy tafakkurlarini rivojlantiradilar. Ko'plik va birlik (atamani ishlatmagan holda) haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladilar. "Matematika", "Atrofimizdagi olam" darslarida taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtirish, sensor tarbiya, alifbo bilan tanishish jarayonida yangicha yondashuvlardan foydalanadilar.

#### 2. Darslar (taqdimotlar, interfaol doska, internet).

O'quv jarayoniga kompyuterni tatbiq etish bilan o'qituvchi darsga ajratilgan vaqtni tejaydi va bunda darsning izchilligi va bajarilgan vazifalar hajmi ortadi, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda muhim hisoblangan ko'rgazmalilik prinsipi amalga oshiriladi. Bolalarning diqqati barqarorlashadi, ularning darsga qiziqishi ortadi va faolligi kuchayadi.

Taqdimot darslari va slayd taqdimotidan foydalanish jarayonida o'qituvchining darsga tayyorgarlik vaqti ancha qisqaradi, ya'ni o'qitish jarayoni yengillashadi. Dars materiallaridagi murakkab jihatlarni tushuntirish imkoni vujudga keladi. Taqdimot darslarini o'qituvchining

o‘zi ishlab chiqadi. Birmuncha sodda slayd namoyishlarini esa o‘quvchilarning o‘zlari tayyorlaydilar. Bunday darslarda o‘quvchi o‘quv jarayonining teng huquqli ishtirokchisiga aylanadi. Masalan, “Atrofimizdagi olam” fanini o‘qitishda o‘quvchilar mustaqil axborotlarni topishlari lozim bo‘ladi. Keyinchalik ular to‘plagan axborotlarini slayd taqdimot ko‘rinishida katta qiziqish bilan taqdim qiladilar. Kompyuter ko‘magida dars o‘tish o‘qituvchiga ham o‘quvchiga ham bir xilda katta qoniqish beradi.

### 3. To‘garak mashg‘ulotlari.

O‘quvchilarning matematikaga qiziqishlarini orttirish sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ya’ni to‘garak mashg‘ulotlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar iqtidorli o‘quvchilar uchun ham, qoniqarsiz o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun ham fan sirlarini puxta o‘zlashtirish, fanga nisbatan qiziqish va ishtiyoqni oshiruvchi pedagogik omillardan bo‘lmog‘i zarur. Ta’lim oluvchilarni o‘yinga jalb etish muhim pedagogik muammoni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalarini hal qilishga yordam beradi va ta’lim uchun o‘yin yangi bilimlarni o‘zlashtirishga da’vatni kuchaytiradi. Boshlang‘ich sinf matematika fanidan o‘quvchi uchun rivojlantiruvchi dastur tuzilishi lozim, bunda o‘quvchi darsda o‘zlashtirgan matematik bilimlarni bevosita umumiy topshiriqlarni o‘yin qoidalarini ko‘rinishida taqdim etadi. Dasturda quyidagilar o‘z ifodasini topishi kerak:

1. O‘yin harakatlarini bajarish layoqati sifatini ta’minlash uchun o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etish kerak. Bu esa ularda ishga qiziqishni oshiradi.

2. O‘yinning mazmuni va amaliy harakatlar bolalar uchun qiziqarli bo‘lib, ularga mustaqillik va tashabbuskorlikni namoyish qilish imkonini berishi kerak.

3. Yo‘l qo‘yilgan xatolar saqlanib qolmasligi kerak. Chunki bajaruvchi harakatlarning amalga oshirilishi to‘g‘riligini nazorat qilib boradi. Agar o‘quvchi topshiriqni bajarishda qiynalsa, unga savol, izoh va boshqa ko‘rinishda yordam ko‘rsatiladi. O‘quvchilarning yutuqlari rag‘batlantiriladi. Bu esa ularda ijobiy hissiy kayfiyatning vujudga kelishiga yordam beradi.

4. Mazkur dasturda o‘quvchiga tabaqalashgan yondashuvni amalga oshirish lozim.

Umumiy o‘rta ta’limda “Informatika” kursini o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni zamonaviy axborot va algoritmik madaniyat sohibiga aylantirishdan iborat bo‘lib, bunda ta’lim jarayoni zamonaviy



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/601> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/601> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/601>